


“Xojagon-naqshbandiya tariqati va yetti pir” monografiyasi Eronda nashr etildi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Komiljon Rahimovning xojagon-naqshbandiya tariqati tarixi, ta’limoti va ushbu tariqatning ilk yetti rahbari - yetti piring hayoti, faoliyati va ta’limoti borasidagi tadqiqotlar natijalarini o‘zida aks ettiruvchi “Xojagon-naqshbandiya tariqati va yetti pir” monografiyasi Eronning Tehron shahridagi “Mavlo” nashriyotida fors tilida nashr etildi.



E'tiborlisi shundaki, shu paytga qadar eronlik tarixchi, adabiyotshunos, dinshunos va tasavvufshunos olimlar tomonidan xojagon-naqshbandiya tariqatini o'rganish borasida muayyan ishlar qilingan bo'lsa-da, haligacha Eronda O'rta Osiyodan yetishib chiqqan mazkur tariqat tarixi, ta'limoti va namoyandalari to'g'risida biror-bir tizimli va qamrovli tadqiqot amalga oshirilmagan edi. Shunga ko'ra o'zbek tasavvufshunosi asarining mazkur forsha nashri Eron va Afg'oniston kabi mamlakatlarda xojagon-naqshbandiya

tariqatini o'rganish ishida muhim va foydali manba bo'lib xizmat qilishi aniq. Bundan tashqari Eron, Afg'oniston, Pokiston va boshqa mamlakatlarda yashovchi forsiyzabon o'quvchilar va tadqiqotchilarga mo'ljallangan bu tarjima tez orada o'z muxlislarini topib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ilmiy va ma'naviy merosning xorijiy mamlakatlardagi targ'iboti yo'lida yana bir muhim qadam bo'lishiga ishonamiz.

Ma'lumot o'rnida: shu kunga qadar muallifning mazkur monografiyasi Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya, Eron, Iordaniya davlatlarida ham nashr etilgan.